

UDC: 343.232.(042)(575.1)
ORCID: 0000-0001-8598-179X

IJTIMOY XAVFLI QILMISH SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASHNING ZARUR CHORALARI CHEGARASIDAN CHETGA CHIQIB QASDDAN ODAM O'LDIRISHDA ZARAR YETKAZISH MASALASI

Hakimov Komil Baxtiyarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
dotsenti
e-mail: hkb22@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishda zarar yetkazish masalasi haqidagi fikrlar tahlil etilgan. Shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish – sodir etilgan jinoyat xavflilik darajasiga yoki uni ushlash vaziyatiga ochiq-oydin nomutanosib ravishda odam o'ldirish hisoblanib, bunda shaxsga nisbatan yetkazilgan zararni aniqlash muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan. Bundan tashqari, jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish maqsadida zarar yetkazish asosi xususida mualliflarning fikrlari turlicha ekanligi, ya'ni olimlar jinoyat-huquqiy zarar yetkazishning asosi sifatida shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etilganligi yoxud sodir etilishi mumkin deb hisoblashlarini tahlil etgan. Biroq tezkor topshiriqni bajarish vaqtida zarar yetkazish amaliyotda tegishli xodim tomonidan qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganiga, u tomondan qanday darajada zararyetkazish mumkinligi masalasi muammoligicha qolib kelayotgani va bu, o'z navbatida, qonunda tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish yoki boshqacha zarar yetkazish chorasini qo'llash asosi va shartlariga oydinlik kiritishni talab etishi ham mazkur maqolada o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlari: ijtimoiy xavfli qilmish, shaxs, ushlash, zarur choralar, chegarasidan chetga chiqib, qasd, odam o'ldirish, zarar yetkazish, jinoyat.

ВОПРОС ПРИЧИНЕНИЯ ВРЕДА ПРИ УМЫШЛЕННОМ УБИЙСТВЕ ЛИЦА, СОВЕРШИВШЕГО ОБЩЕСТВЕННО ОПАСНОЕ ДЕЯНИЕ, КАК СЛЕДСТВИЕ ПРЕВЫШЕНИЯ НЕОБХОДИМЫХ МЕР ПО ЕГО ЗАДЕРЖАНИЮ

Хакимов Комил Бахтиярович,
доцент Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В статье проанализированы взгляды правоведов на вопрос причинения вреда при умышленном убийстве лица, совершившего общественно опасное деяние, как следствие превышения необходимых мер по его задержанию. Обосновано, что умышленное убийство лица, совершившего общественно опасное деяние, при превышении необходимых мер по задержанию является несоразмерным по степени общественной опасности совершенного преступления, поэтому обстоятельства его задержания и установление причиненного вреда лицу имеет важное значение. Кроме того, автор анализирует, что в теории уголовного права мнения авторов различны по поводу оснований причинения вреда в целях предотвращения общественно опасного деяния, то есть являются ли общественно опасные деяния или преступления, которые были совершены или могут быть совершены лицом, как основание для причинения вреда. Также в статье находит свое отражение вопрос о том, при каком общественно опасном деянии и вред какой степени может быть нанесен соответствующим сотрудником при выполнении оперативного задания, что остается на сегодняшний день актуальной проблемой и требует уточнения

в законодательстве. Существует необходимость уточнения оснований и условий причинения вреда при выполнении оперативного задания.

Ключевые слова: общественно опасное деяние, лицо, задержание, необходимые меры, превышение, умышленное убийство, причинение вреда, преступление.

THE ISSUE OF CAUSING HARM IN CASE OF PREMEDITATED MURDER, IN EXCESS OF THE NECESSARY MEASURES FOR THE DETENTION OF A PERSON WHO HAS COMMITTED A SOCIALLY DANGEROUS ACT

Khakimov Komil Bakhtiyarovich,
Associate Professor of Tashkent State
University of Law

Abstract. The article analyzes the views on the issue of causing harm in case of premeditated murder, in excess of the necessary measures for the detention of a person who has committed a socially dangerous act. It is also substantiated that premeditated murder, in excess of the necessary measures of detention of a person who has committed a socially dangerous act, is considered a murder clearly disproportionate to the degree of public danger of the crime committed or the circumstances of his detention and the establishment of harm caused to the person is of great importance. In addition, the author analyzes that in the theory of criminal law, the opinions of the authors are different on the grounds for causing harm in order to prevent a socially dangerous act, that is, scientists believe that the commission of a socially dangerous act or crime by a person may serve as a basis for causing criminal-legal harm. Also, this article reflects that the question of what socially dangerous act was committed by the relevant employee (a person hired by the special service), to what extent the harm can be caused by this person while performing an operational task remains a problem, and this, in turn, requires clarification in the law of the grounds and conditions for the commission of a socially dangerous act or other measures of causing harm in the performance of an operational task.

Keywords: socially dangerous act, person, detention, necessary measures, if exceeded, premeditated murder, causing harm, crime.

Bizga ma'lumki, qilmishning jinoyatligini istisno qiluvchi holatlarni aniq ajratish, ularning huquqiy ahamiyatini, qo'llash chegarasini aniqlash va jinoyat hamda jazo institutida qilmishning jinoyatligini istisno qiluvchi holatlarning huquqiy ahamiyatini o'rganish va ushbu holatlarning inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda tutgan o'rnini aniqlash qonunchilikdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chiqarish zarur yetkazish masalasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab chiqarish zarur choralari chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish – sodir etilgan jinoyat xavflilik darajasiga yoki uni ushlab chiqarish vaziyatiga ochiq-oydin nomutanosib ravishda odam o'ldirishdir.

Ushlab chiqarish asoslari jinoyat-protsessual ahamiyatga ega va ular JPK ning 221-moddasida bayon qilingan bo'lib, agar qilmish xavfli bo'lmasa, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanilgan oxirgi zaruratni qonuniy deb hisoblash mumkin

emas. Bunday holda qasddan odam o'ldirishni kvalifikatsiya qilishda yengillashtiruvchi holatlarsiz JK ning 97-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Xuddi shunday qoida og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs ushlovchiga qarshilik ko'rsatmagan (yoki qarshilik ko'rsatishni to'xtatgan) va uni o'ldirish zaruriyati ushlab chiqarishdan kelib chiqmagan hollarda ham qo'llaniladi.

Shu norma asosan, ushlab chiqarish vositasi va usuliga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek ushlab chiqarish sharoitiga mos kelmaydigan, ushlab chiqarish zarurati taqozo etmagan holda ushlanayotgan shaxsga qasddan zarar yetkazish ushlab chiqarish choralari chegarasidan chetga chiqish deb topiladi va unda yetkazilgan zarar masalasi muhim ahamiyatga ega.

Jinoyatchini ushlab chiqarish vaqtida unga zarar yetkazishni zaruriy mudofaadan ajratish masalasini nazariy jihatdan ishlab chiqarishga olimlar sharoitida kirishgan bo'lib, jinoyatchini unga zarar yetkazib ushlab chiqarishni mustaqil holat

sifatida ajratish zarurligiga birinchilardan bo'lib, bu borada I.I. Sluskiy e'tiborni qaratgan. U tajovuz tugallanganidan so'ng hujum qiluvchiga zarar yetkazishga zaruriy mudofaa qoidalariga muvofiq yondashish yaramaydi, chunki amalda xavf tug'dirmayotgan shaxsga zarar yetkazish, agar uni ushlash zaruriyati shuni taqozo etgan bo'lmasa, o'ch olishdan boshqa narsa emas, deb hisoblagan [1]. Ayni paytda, u jinoyatchini ushlash zaruriyati taqozosi bilan kuch ishlatish nafaqat xavfli emas, balki, aksincha, jamiyat uchun foydali hamdir, deb ta'kidlagan [2] va uning ushbu fikrlarini asosli deb hisoblaymiz.

A.B. Saxarov o'zining "Jinoyat qonuni. Nazariy modellashtirish tajribasi", deb nomlangan monografiyasida qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar qatoriga jinoyatchini ushlashni ham kiritgan [3].

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni ushlash vaqtida unga zarar yetkazish ishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan amaldagi Jinoyat kodeksida birinchi marta o'z ifodasini topdi. Ushbu norma Jinoyat kodeksning 39-moddasida aks etgan bo'lib, unga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Zarar yetkazishning muhim shartlaridan biri tezkor xodim tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish hisoblanadi. Jinoyat-protsessual qonunda shaxsni jinoyat sodir etganlikda gumon qilib ushlash uchun asoslar belgilab o'tilgan [4]. Ammo ushbu qonunchilikda, tezkor xodim tomonidan topshiriq vaziyatida ushlash choralari ko'rishda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxs ushlanishdan bo'yin tovlaganida, uni ushlashning boshqa imkoniyati bo'lmaganda, ushlanuvchi shaxsga kuch ishlatish yoki zarar yetkazib ushlash chorasini qo'llash yuzasidan qoidalar belgilab berilmagan. Aksariyat xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish chorasini ushlashning so'ngi chorasini sifatida qo'llanilishi belgilab berilganligi e'tiborga molikdir [5].

Hozirgi kunda tezkor topshiriq vaqtida zarar yetkazish huquqiga ega bo'lgan davlat

organi xodimlari va nazariyachi olimlar o'rtasida topshiriqni bajarish jarayonida qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish uchun zarar yetkazish mumkinligi bahsli holat sifatida qaralib kelinmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida bu haqida umuman so'z yuritilmaydi. Shuningdek, qaysi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olish uchun zarar yetkazishga yo'l qo'yilmasligi xususida qoidalar qonunchilikda belgilanmagan. Biroq, bugungi kun amaliyoti hamda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu holatlarga aniqlik kiritishni talab etmoqda.

Ushbu masala xususida mualliflarning fikrlari ham mavjud. Jumladan, A.N. Popov tomonidan zarar yetkazish chorasini, "Faqatgina jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan qonunda belgilangan yoshga yetgan, aqli raso jismoniy shaxsga nisbatan qo'llash mumkin" [6], deya munosabat bildiradi. Nazarimizda, ushbu fikr biroz mulohazali. Sababi, ayrim holatlarda ijtimoiy xavfli qilmish aqli noraso shaxs tomonidan ham sodir etiladi [7]. Bu kabi holatlarda aqli noraso shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash zarurati yuzaga keladi [8]. Tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlarning o'z vaqtida oldini olish maqsadida zarurat bo'lganida, oxirgi chora sifatida zarar yetkazib ushlash mumkin.

B.V. Sidorov zarar yetkazish asoslari xususida to'xtalib, "Shaxs og'ir jinoyat sodir etganida, uning badaniga shikast yetkazib ushlashga yo'l qo'yilishi mumkin" [9], deb ta'kidlaydi. Muallifning bildirib o'tgan fikrlari ham biroz mulohazali. Sababi, tezkor vaziyatda sodir etilishi mumkin ijtimoiy xavfli qilmishning og'ir jinoyat ekanligini aniqlash uchun jinoyat tarkibining barcha tarkibiy elementlarini aniqlash talab etiladi. Amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishning oldini olishda har doim ham jinoyatchilar (jinoiy to'da) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilishini aniqlashning imkoni bo'lavermaydi.

Zarar yetkazish asosi yuzasidan V.S. Komissarov mushohada yuritib, "Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan shaxslarga kuch ishlatish harakatlari umumiy huquqqa ko'ra yo'l qo'yilmaydi. Zarar yetkazib ushlashning zaruriy asosi ijtimoiy xavfliligi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganligidir" [10], deya ta'kidlaydi. Ammo, tezkor topshiriq chog'ida zarar yetkazish

amaliyotida uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan holda zarar yetkazish zarurati yuzaga keladi.

Bu borada N.G. Kadnikovning fikricha, "Zarar yetkazish uchun asos zo'ravonlik va kuch ishlatadigan jinoyatlar (asosiy yoki qo'shimcha obyekti shaxsning jinsiy daxlsizligi, sog'lig'i, hayoti hisoblanadigan)ga nisbatan qo'llanilishi mumkin" [11]. Biroq, ushbu muallif ham tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish shaklida zarar yetkazish mumkinligini e'tibordan chetda qoldiradi. I.S. Tishkevich esa "Alohida fuqarolarga, hokimiyat vakillariga va ichki ishlar idoralari xodimlariga nisbatan zo'ravonlik, jamoa tartibini buzish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etganda zarar yetkazish mumkinligini" keltirib o'tadi [12].

Biroq, amaliyotda ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish uchun sodir etilgan zarar yetkazish zarurati yuzaga kelishi nafaqat sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfli qilmishga, balki tezkor xodim (shaxs)ning xulq-atvoriga, so'nggi chora sifatida boshqa harakatlar sodir etish imkoniyati bor-yo'qligiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'lib qolmoqda. Amaliyotda eng ko'p holatlarda qasddan odam o'ldirish [13], tinchlik va insoniyat xavsizligiga qarshi jinoyatlar [14], diniy ekstremizm [15], terrorizm [16], jinsiy zo'ravonlik [17], shaxsga qarshi jismoniy va ruhiy zo'ravonlik [18], o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik [19], ommaviy tartibsizliklar [20], kontrabanda va bojxona qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarini sodir etishning oldini olishda uchraydi. Ularning ayrimlari maxfiy topshiriq vaqtida to'satdan yuzaga kelgan tarang vaziyat yoki maxfiylikni saqlab qolish uchun ijtimoiy xavfli zarar yetkazish zarurati bilan bog'liq.

Ijtimoiy xavfli qilmish shaklidagi zarar yetkazishning asosi xususida N.N. Tureskiy, "Zarar yetkazishga yo'l qo'yiladi qachonki, shaxs jinoyat sodir etish natijasida yoki sudning ayblov hukmi bo'lganda" [21], deb ta'kidlaydi. Nazarimizda, bu holat bir o'rganayotgan jinoiylilikni istisno qilish holatiga to'g'ri kelmaydi, chunki ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlarning oldini olish uchun zarar yetkazish zarurati yuzaga kelmaydi. Bu masala xususida A.B. Ivanov o'rinli ta'kidlaganidek, "Kuch ishlatish huquqi yuzaga kelishi, nafaqat jinoyat sodir etish fakti bilan, ijtimoiy xavflilikning mavjudligi va ochilmagan yoki jazoga tortilmagan jinoyatlar yuzasidan ham mavjud bo'lishi mumkin" [22]. Boshqacha aytganda, yetkazilgan zararni

asosli deb topish uchun, jinoyatchilarning aybi bo'yniga qo'yilib, sud hukmini chiqarishni kutish shart emas.

M.H. Rustamboyev quyidagi holatlar jinoyat sodir etgan shaxsni ushlash uchun asos bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi: "Ushlashni amalga oshirayotgan shaxs jinoyat sodir etilayotgan joyda voqea sodir etilayotganning ustidan chiqib qolishi yoki jinoyatni aniq kuzatishi; guvohlar yoki jabrlanuvchi shaxslar jinoyat sodir etgan shaxsni to'g'ridan to'g'ri ko'rsatishi; subyektning o'zida yo egnidagi kiyimida yoki uning turarjoyidagi yoxud unga tegishli buyumlarda yaqqol jinoyat izlarining yoki ashyoviy dalillarning topilishi; jinoyatchini qidirish to'g'risidagi qarorning mavjudligi; jinoyatchining qochib yurganligi bo'lishi mumkin" [23].

Shu bilan bir qatorda, zarar yetkazish mumkin bo'lmagan asoslar xususida o'rinli fikr bildiradi. Jumladan, "Shaxsni jinoyat bo'lmagan ma'muriy huquqbuzarlik, intizomiy qilmishni sodir etgani uchun ushlash mumkin emasligini qayd etish lozim" [24]. Analogiya tarzida aytish mumkinki, haqiqatdan ham tezkor topshiriqni bajarish vaqtida amaliyotda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan yoki bunday huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida zarar yetkazish choralari ko'rilishi talab etilmaydi.

Ushbu faktik ma'lumotlardan kuzatish mumkinki, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ushlash choralari ko'ruvchi shaxsga yoki boshqa fuqarolarga ijtimoiy xavfli tajovuzni keltirib chiqarmasa, unga nisbatan zarar yetkazib ushlash choralari ko'rishga yo'l qo'yilmaydi [25].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan aytish mumkinki, jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavfli qilmishning oldini olish maqsadida zarar yetkazish asosi xususida mualliflarning fikrlari turlicha. Ya'ni olimlar jinoyat-huquqiy zarar yetkazishning asosi sifatida shaxs tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etilganligi yoxud sodir etilishi mumkin deb hisoblaydilar [26]. Biroq tezkor topshiriqni bajarish vaqtida zarar yetkazish amaliyotda tegishli xodim (maxfiy xizmatga yollangan shaxs) tomonidan qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilganiga, u tomondan qanday darajada zarar yetkazish mumkinligi masalasi muammoligicha qolib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, qonunda tezkor topshiriqni bajarish vaqtida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etish

yoki boshqacha zarar yetkazish chorasini qo'llash asosi va shartlariga oydinlik kiritishni talab etadi.

Tergov va sud amaliyoti materiallarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, zarar yetkazish choralari asosan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va fuqarolar (xufiyalar) tomonidan shaxsning hayoti va sog'lig'iga, jamiyat va davlat manfaatlariga, jamoat tartibiga tajovuz qilish bilan bog'liq ijtimoiy xavfli qilmishlar shaklida qo'llanilgan. Aksincha, xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar (JK Maxsus qismi 13-bob)ni fosh etish borasida zarar yetkazish choralari ko'rish uchun zarurat tug'ilgan.

Sababi ushbu sohadagi jinoyatlarni maxfiy ravishda fosh etishda tegishli tarang vaziyat yuzaga

kelmagan, jinoyatchi shaxslarning shaxsi aniq bo'lgan yoki ko'p vaziyatlarda davlat hokimiyati organi xodimlarining qo'lga tushishdan bo'yin tovlamagan yoki real qarshilik ko'rsatmagan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Jinoyat kodeksi 39-moddaning birinchi qismiga "*qochishining oldini olish*" va "*hibsga olish*" so'zlari kiritilsin va qo'yidagi tartibda bayon qilinishi lozim:

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish va *qochishining oldini olish maqsadida* ushlash va *hibsga olish*, vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash uchun zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

REFERENCES

1. Sluskiy I.I. *Obstoyatelstva, isklyuchayushiye ugovnuyu otvetsvennost* [Circumstances precluding criminal liability]. Moscow, 1956, p. 60.
2. Khakimov K. Affect (Strong Mental Excitement) as means of legal structure in a condition of relief and penalty. *Review of law sciences*, 2018, vol. 2, no. 4, p. 21.
3. *Ugolvniy zakon. Opit teoreticheskogo modelirovaniya*. Otv. red. V.N. Kudryavsev, S.G. Kelina [Criminal law. Theoretical modeling experience. Resp. ed. V.N. Kudryavsev, S.G. Kelina]. Moscow, 1987, pp. 128-129.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2019-yil 1-oktabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan (as amended and supplemented until October 1, 2019). Official publication]. Tashkent, 2019, art. 39.
5. *Kurs ugolovnogo prava. Obshaya chast. Tom 1. Uchebnik dlya vuzov*. Pod red. V.S. Komissarov [Criminal Law Course. A common part. Vol. 1. Textbook for universities. Ed. V.S. Komissarov]. Moscow, 2002, p. 291.
6. Popov A.N. *Obstoyatelstva, isklyuchayushiye prestupnost deyaniya* [Circumstances precluding the criminality of an act]. Saint Petersburg, 1998, p. 28.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Ruhii kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi choralarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2008-yil 12-noyabr 23-sonli qarori [Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 23 of November 12, 2008]. Available at: <https://lex.uz/docs/1601125/>.
8. Fayzullayeva T.X. *Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ta'minlash muammolari*. Yurid. fan. nomz. dis. avtoref. [Problems of Enforcement of Medical Coercion]. Tashkent, 2009, p. 25.
9. Sidorov B.V. *Prichinenie vreda pri zaderjani prestupnika* [Causing harm in arresting a criminal]. *Sovetskaya yustitsiya – Soviet justice*, 1990, no. 3, pp. 10-13.
10. *Kurs ugolovnogo prava. Obshaya chast. Uchebnik dlya vuzov*. Pod red. V.S. Komissarov [Criminal Law Course. A common part. Vol. 1. Textbook for universities. Ed. V.S. Komissarov]. Moscow, 2002, p. 289.
11. Kadnikov N.G. *Obstoyatelstva, isklyuchayushiye prestupnost deyaniya. Uchebnoe posobie* [Circumstances precluding the criminality of the act. Tutorial]. Moscow, 1998, p. 24.
12. Tishkevich I.S. *Oborona i neobxodimost'* [Defense and necessity]. *Zakonnost' – Legality*, 1992, no. 4, pp. 28-31.
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti i to'g'risida"gi 13-sonli qarori [Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 13 of September 24, 2004 "On Judicial Practice in Cases of Intentional Murder"]. Available at: <https://lex.uz/docs/2892369/>.

14. Mirzayev A.A. Prestupleniya protiv Respubliki Uzbekistan. Ugolovno-pravovie i kriminologicheskie aspekti. Monografiya [Crimes against the Republic of Uzbekistan. Criminal and criminological aspects. Monograph]. Tashkent, 2007, p. 82.
15. Rajabova M.A. Diniy ekstremizm va terrorchilik: uning ildizi qayerda? Maqsadi nima? Unga qarshi qanday kurashish kerak? [Religious extremism and terrorism: where are its roots? What is the purpose? How to fight it?]. Tashkent, 2000, p. 143.
16. Tadjixanov B.U. Terrorizmning huquqiy tavsifi. O'quv qo'llanma [Legal description of terrorism. Study guide]. Tashkent, 2006, p. 61.
17. Toxirov F. Jinsiy jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish asoslari [Fundamentals of qualifying sexual crimes]. Tashkent, 2006, p. 134.
18. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.
19. Bakunov P. Bosqinchilik uchun javobgarlik. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir M. Usmonaliyev [Liability for aggression. Study guide. Editor-in-Chief M. Usmonaliyev]. Tashkent, 2008, p. 49.
20. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining "Respublika sudlari tomonidan ommoviy tartibsizliklar uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq ayrim masalalar haqida"gi 1996-yil 20-dekabr 38-sonli qarori [Resolution of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan No. 38 of December 20, 1996 "On some issues related to the practice of application of the law on liability for mass riots by the courts of the Republic"]. Available at: <https://sud.uz/>.
21. Tureskiy N.N. Teoreticheskie problemi obstoyatelstv, isklyuchayushix prestupnost deyaniya, po ugolovnomu zakonodatelstvu respubliki Kazaxstan. Avtoreferat dok. yur. nauk [Theoretical problems of the circumstances excluding the criminality of the act, according to the criminal legislation of the Republic of Kazakhstan. Abstract doc. legal entity sciences]. Saint Petersburg, 2005, p. 37.
22. Ivanov A.B. Institut prichineniya vreda pri zaderjanii litsa, sovershiv-shego prestuplenie. Avtoref. dis. kand. yurid. nauk [The institution of causing harm during the arrest of a person who has committed a crime]. Moscow, 1999, p. 13.
23. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism [Comments on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. General section]. Tashkent, 2006, pp. 36-37.
24. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism [Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. General section]. Tashkent, 2010, vol. 1, p. 366.
25. Khakimov K. Criminological Characteristic of the Crime committed in the Case of Affect and the Identity of the Perpetrator. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, pp. 6980–6994. Available at: <https://www.annalsofscb.ro/index.php/journal/article/view/866/>.
26. Khakimov K. Affect (Strong Mental Excitement) as means of legal structure in a condition of relief and penalty. Review of law sciences, 2018, vol. 2, no. 4, p. 21.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

II QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.